

BURGUTXONOV Saidumarxon Sirojiddin o'g'li
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Dinshunoslik va jahon dinlarini
qiyosiy o'rganish UNESCO kafedrası o'qituvchisi
sayyidumarxon98@gmail.com

RAXMONOV Sunnatullo Negmat o'g'li
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,
Dinshunoslik ta'lim yo'nalishi
3-kurs talabasi

“AT-TAMHID FI BAYON AT-TAVHID” ASARIDA MAJUSIYLIK E'TIQODI BAYONI

ИЗЛОЖЕНИЕ ЗОРОАСТРИЙСКОГО ВЕРОУЧЕНИЯ В ТРУДЕ “АТ- ТАМХИД ФИ БАЯН АТ-ТАУХИД”

AN EXPLANATION OF ZOROASTRIAN BELIEFS IN THE WORK ‘AT-TAMHID FI BAYAN AT-TAVHID’

Annotatsiya: Ushbu maqolada, islom aqidasi va diniy tafakkur tarixida muhim o'rin tutgan Abu Shakur as-Solimiyning hayoti, ilmiy faoliyati va “at-Tamhid fi bayon at-tavhid” nomli asari, hamda u asosida majusiylar (zardushtiyalar) e'tiqodining kelib chiqishi, shakllanishi va ularning diniy toifalari chuqur tahlil qilinadi. Maqolada, muallif asarda keltirilgan majusiylar haqidagi fikrlar, ularning Xudo haqida bo'lgan tasavvurlari, dualistik e'tiqodlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Abu Shakur Solimiy Keshiy, kalam, aqida, firqalar, “At-Tamhid fi bayon at-tavhid”, majusiylar, zardushtiylik, mazdakiylar.

Аннотация: В данной статье представлен глубокий анализ жизни и научной деятельности Абу Шукура ас-Салими — мыслителя, занимающего значимое место в истории исламского вероучения. Особое внимание уделяется его труду «Ат-Тамхид фи баян ат-таухид». В работе рассматриваются сведения автора о генезисе и религиозных течениях зороастризма, а также анализируются его взгляды на язычество, дуалистические концепции и представления о божественном в данной традиции.

Ключевые слова: Абу Шакур Салими Кеши, калам, акида, секты, “Ат-Тамхид фи баён ат-таухид”, язычество, зороастризм, маздакизм.

Abstract: This article thoroughly analyzes the life, scientific activities, and work ‘At-Tamhid fi Bayan at-Tawhid’ of Abu Shakur as-Salimi, who played an important role in the history of Islamic doctrine and religious thought, and based on it, the origin, formation of Zoroastrian beliefs and their religious categories. The article examines and elucidates the author's interpretations of Zoroastrianism as presented in the work, with particular emphasis on the followers conceptions of God and the fundamental principles of their dualistic belief system.

Keywords: Abu Shakur Salimi Keshi, kalam, aqida, sects, ‘At-Tamhid fi bayon at-Tawhid’, paganism, Zoroastrianism, Mazdakism.

KIRISH

Islom tafakkuri tarixida qadimgi diniy e'tiqodlar va ularning islom manbalarida tadqiq etilishi muhim ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Xususan, majusiylar (zardushtiylik) e'tiqodining kelib chiqishi, asosiy g'oyalari va ichki toifalari kalam ilmi doirasida turli olimlar tomonidan tahlil qilingan.

Milal va nihali janrida Shahristoniydan oldin yozilgan asarlar orasida ilmiy qiymati va ahamiyatiga ega bo'lgan asarlardan biri Ibn Hazmning “al-Fasl fil-milal val-ahva van-nihal” asaridir. Asarning birinchi qismida muallif quyosh, oy, but-sanamga sig'inuvchi toifalar, otashparast, majusiylar, zardushtiyalar, hinduiylar va boshqa dinlar ta'limotlari haqida keng ilmiy faktlarga asoslangan ma'lumotlar bergan. Har bir din haqida bergan ma'lumotlarini o'sha dinning muqaddas manbasidan keltirishga harakat qilgan [8: 45].

Bu borada moturidiylar maktabining vakili Abu Shakur Solimiy Keshiy tomonidan yozilgan “At-Tamhid fi bayon at-tavhid” asari muhim manba sanaladi. Mazkur asarda muallif islom aqidasi asosiy masalalari bilan bir qatorda, tavhid ta'limotiga zid bo'lgan e'tiqodlar, jumladan majusiylar ham tanqidiy-ilmiy nuqtai nazardan yoritadi. Abu Shakur Solimiy majusiylar e'tiqodini kelib chiqishi va e'tiqodiy xususiyatlariga ko'ra bir nechta toifalarga ajratib tahlil qilgani bilan ajralib turadi. Biroq ushbu masala hozirga qadar alohida va tizimli tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha o'rganilmagan.

Tadqiqot jarayonida tavsifiy-tahliliy va qiyosiy metodlardan foydalanilib, majusiylar haqidagi qarashlar islom aqidasi nuqtai nazaridan

baholanadi. Abu Shakur Solimiy Keshiy o'z davrida kalom ilmi va moturidiylik ta'limotining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan buyuk mutafakkirlardan biri hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Abu Shakur Solimiy Keshiy ilk hanafiy va moturidiylik ta'limoti olimi bo'lib, u haqida xabar beruvchi ma'lumotlar kam. Olimning to'liq ismi Abu Shakur Muhammad ibn Abdulloh Said ibn Shuayb Keshiy Solimiy Hanafiy Makshifiydir. Allomaga Keshiy nisbati tug'ilib o'sgan joyi, qadimgi Kesh shahriga nisbatan berilgan [6: 5]. Ayrim arab tiliga doir manbalarda "الكشّي" (al-Kashshiy) yoki "القَصِيّ" (al-Qassiy) nisbati bilan zikr qilingan bo'lib, "hanafiy" nisbati esa, olimning e'tiqodi va amal qilgan mazhabi, hanafiy mazhabiga nisbat berilgan [6: 6]. Solimiy asarlarida o'zini "قَالَ الْمُهْتَدِي أَبُو شَكُورٍ السَّالِمِيّ" (Muhtadiy Abu Shakur Solimiy aytdi) deb keltirilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, olimning mashhur nisbasi o'z qabilasiga nisbatan "السَّالِمِيّ" (as-Solimiy) bo'lgan [11: 1]. Abu Shakur Solimiy Keshiy "المُهْتَدِيّ" (al-Muhtadiy – to'g'ri yo'lda yuruvchi) nomi bilan ham shuhrat qozongan [11: 6]. Bu nom u hech qachon najot yo'lini tark etmagan yoki doimo haqiqatni izlagan degan ma'noda ham berilgan bo'lishi mumkin [12: 4-5].

Abu Shakur Solimiy Keshiy 448/1056-yilda vafot etgan Abu Muhammad Abdulaziz ibn Ahmad ibn Nasr Halvoniy (Halvoniy "Shams al-aimma" deb nomlangan birinchi shaxs bo'lib, o'z davrida ahli ra'yni rahbari hisoblangan hanafiylik faqihidr) bilan uchrashgani va undan asarlarida ba'zi ma'lumotlarni keltirganini hisobga olinsa [4: 344], Solimiy taxminan hijriy 430-yil, milodiy 1038-1039-yillarda tug'ilgan [8: 15]. Ushbu ma'lumotlar bilan olimning tug'ilgan vaqti to'g'ri deb hisoblansa ham, ikki olimlarning yuzma-yuz uchrashuvi haqidagi xabarlar manbalarda aniq keltirilmagan.

Ba'zi tadqiqotchilar Solimiy Halvoniy bilan shaxsan uchrashgan deb hisoblashadi. Biroq, bunga dalil sifatida keltirilgan ma'lumotlarda quyidagi ikki muammo uchraydi:

birinchidan, Solimiy Halvoniydan keltirgan so'zlarini o'z ustozidan - Abu Bakr Xatibdan rivoyat qiladi. U "قَالَ رَحِمَهُ اللَّهُ" (*qola rohimahulloh* - u zot aytdi, Alloh unga rahm qilsin) deganda, bu

ifoda ustoziga nisbatan ishlatilgan. Undan keyingi "وَقَالَ" (*va faqola* – va u (yana) dedi) ham, ehtimol, o'sha shaxsga taalluqli. Demak, bu yerda so'z bevosita Halvoniydan emas.

ikkinchidan, Solimiy boshqa joyda "سَمِعْتُ عَنْ... الشَّيْخِ... ذَكَرَ فِي عَمَلِهِ" (*sami'tu an-al-shayx... zakara fi amalihi* – Men shayxdan eshitdim... u o'z asarida zikr qilgan) deb yozadi. Bu uning Halvoniydan to'g'ridan-to'g'ri emas, balki yozma manba orqali iqtibos keltirganini ko'rsatadi. Shuningdek, "وَحُكِّيَ" (*va-hukiya an Shams al-aimmah al-Halvoniy* – rivoyat qilinishicha, Shams al-aimma Halvoniy aytgan) degan ibora ham bilvosita rivoyatdir [12: 2-3]. Solimiyning Halvoniy bilan shaxsan uchrashgani aniq emas. Shu bois, uning fikrlarini ustozlari yoki asarlari orqali bilgan degan xulosa kelib chiqadi.

"at-Tamhid fi Bayoni at-Tavhid" asari mumtoz davrning eng mo'jaz asari hisoblanadi. Asar o'n ikki bobdan iborat bo'lib asarda islom aqidasi, ahli kitoblar va o'sha davrlarda mavjud bo'lgan bir qancha sof islom aqidasidan adashgan firqalar, hamda ularga berilgan raddiyalar aks etadi. Asar quyidagi boblardan tashkil topgan:

1-bob. "في العقل" – Aql haqida deb nomlangan bo'lib, bob o'nta fasldan iborat. Unda, aqlning mohiyati, aqlning miqdori va chegarasi, aqlning foydasi va uning zavol topishi, aql vositasida ma'rifat (Alloh taoloni tanish) hosil bo'lishi, aqlning aqli kishi uchun hujjat ekani, aql bilan vojib qilish, yosh go'daklar haqida, aql yoki ilm afzalligi, insonlar, jinlar va shaytonlarning qaysi biri boshqasidan afzalligi borasida, aql yaxshi sanaydigan narsalar kabi mavzular bayon qilingan [6: 12-34].

2-bob. "في المحسوس والمعلوم" – His qilnadigan va ma'lum narsalar haqida deb nomlangan bo'lib, bob yetti fasldan iborat. Unda, his qilish va his qilnadigan narsalar, tabiat va olat (asbob), juz va kull tushunchalari, rux va harakat, hududlar va ibdo (yaratish), olamning yangidan paydo bo'lgani kabi mavzular bayon qilingan [6: 37-55].

3-bob. "في إثبات الصانع" – Yaratuvchining isboti haqida deb nomlangan bo'lib, bob yetti fasldan iborat. Unda, yaratuvchining qadimligi, yaratuvchining yagonaligi, Alloh taoloning ziddi va tengi yo'qligi, Alloh taologa nisbatan makon masalasi, mohiyat tushunchasi, o'zini "Xudo" deb da'vo qiluvchilar kabi mavzular bayon qilingan [6: 60-79].

4-bob. “في إثبات الصفات” – Alloh taoloning sifatlarini isbotlash haqida deb nomlangan bo‘lib, bob o‘nta fasldan iborat. Unda, Alloh taoloning zotiy va fe‘liy sifatlari, Alloh taoloning azaldan xoliqligi, Alloh taoloning ilmi, Alloh taoloning eshitishi va ko‘rish sifati, Alloh taoloning iroda va mashiat sifati, Alloh taolonin fazli va adolati, takvin va mukavvan (yaratish va yaratilgan narsa), Alloh taolo sifatlarining adadi, mutashobehlar kabi mavzular bayon qilingan [6: 84-102].

5-bob. “في الأسماء” – Ismlar haqida deb nomlangan bo‘lib, bob oltita fasldan iborat. Unda, Alloh taoloning go‘zal ismlari, ism musammo (nomlanuvchi)ning o‘zimi yoki undan boshqami?, Alloh taoloni Qur‘on va hadisda kelmagan nom bilan nomlash, rasullar va farishtalarning ismlari kabi mavzular bayon qilingan [6: 106-112].

6-bob. “في إثبات الوحي على الرسل” – Rasullarga vahiyini isbot qilish haqida deb nomlangan bo‘lib, bob yegirma yetti fasldan iborat. Unda, Alloh taoloning vahiy qilishi va rasullarni jo‘natishi hikmat jihatidan vojib ekanligi, payg‘ambarlarning (alayhimussalom) gunohdan pokligi, mo‘jiza, Qur‘onning mo‘jizaligi va payg‘ambar (alayhissalom) ning risolati, mo‘jizakorlik Qur‘onning nazmiga xosmi yoki ma‘nosiga?, Qur‘ondan oldingi samoviy kitoblar mo‘jizakormi yoki yo‘q?, Rasululloh (s.a.v)ni Alloh tomonidan berilgan mo‘jiza tufayli tanish, haqiqiy payg‘ambar bilan soxta payg‘ambar, payg‘ambar va valiy, payg‘ambar afzalmi yoki valiy afzalmi?, payg‘ambarlarning birini ikkinchisidan afzal ko‘rish, payg‘ambarlik va valiylikning olib qo‘yilishi, mo‘jiza xos kishilar haqida sobit bo‘lsa, omma haqida ham sobit bo‘lishi, bir zamonda ikki xil shariatni o‘rnatish, shariatlar va kitoblarni nasx qilish, Qur‘onning nozil bo‘lishi va vahiysi kabi mavzular bayon qilingan [6: 114-159].

7-bob. “في معرفة الإيمان” – Imon ma‘rifati haqida deb nomlangan bo‘lib, bob o‘n yetti fasldan iborat. Unda, Allohni haqiqiy taniydigan oriflar, Yaratuvchining borligiga aql bilan dalil keltirish va taqlid qilish, imonning rukni, imonning shartlari, imon ko‘payib-kamayadimi yoki yo‘q?, imonda istisno va shakl qilish, miysoq imoni, imon bilan islom o‘rtasidagi farq, imonning maxluq yoki maxluq emasligi, imonning o‘rni va uning boqiyiligi, inson jon berayotgan vaqtda imonning ketishi joiz yoki joiz emasligi kabi mavzular bayon qilingan [6: 160-195].

8-bob. “في شرائط الإيمان” – Imonning shartlari haqida deb nomlangan bo‘lib, bob o‘n to‘qqizta fasldan iborat. Unda, farishtalarga imon keltirish, Alloh taoloning kitoblariga imon keltirish, Rasullarga imon keltirish, Muhammad payg‘ambarimiz (alayhissalom)ga imon keltirish, me‘roj, oxiratga imon keltirish, tarozi, sirot va hisob-kitob, xafaza (nomai a‘mollarni bituvchi farishta)lar, do‘xaxga kirish va undan chiqish kabi mavzular bayon qilingan [6: 197-246].

9-bob. “في الدين والشرائع” – Din va shariatlar haqida deb nomlangan bo‘lib, bob uch fasldan iborat. Unda, istitoat (qudrat, imkoniyat) va tafviz, mehnat (qiyinchilik, balo, g‘am) va sinov, dinning asoslari va e‘tiqod qilish vojib bo‘ladigan narsalar kabi mavzular bayon qilingan [6: 250-253].

10-bob. “في التكليف والطاعة” – Taklif va toqat haqida deb nomlangan bo‘lib, bob yetti fasldan iborat. Unda, taklif va toqat, hadlar va kafforotlar, tavba va panoh so‘rash, baxt va baxtsizlik, qazo va ado, farz amalini qasddan tark etgan kishi kabi mavzular bayon qilingan [6: 262-279].

11-bob. “في الخلافة والإمارة” – Xalifalik va amirlik haqida deb nomlangan bo‘lib, bob sakkiz fasldan iborat. Unda, roshid xalifa (r.a)lar, sahoba (r.a)larning birini ikkinchisidan afzal qo‘yish, Muoviya (r.a)ning Ali (r.a)ga qarshi chiqishi va amirligi, Husayn (r.a)ning qatl qilinishi, xalifalik ishi abbosiylarga topshirilishi kabi mavzular bayon qilingan [6: 284-304].

12-bob. “في السنة والجماعة والردّ على أهل البدعة” – Sunnat va jamoat to‘g‘risida va bid‘at axliga raddiya berish haqida deb nomlangan bo‘lib, bob o‘n olti fasldan iborat. Unda, din holis Allohnikani, bid‘at, bid‘at ahli bilan bahslashish, firqalar, rofiziylar, nosibiylar, qadariylar, jabariylar, muattilalar, mushabbihalar, majusiylik, yahudiylik, nasroniylik, tanosuxiylik (metempsixoz oqimi) haqida kabi mavzular bayon qilingan [6: 308-344].

Ushbu asarda dastavval, tavhid ta‘limotining asosiy qoidalarini so‘ngra, fitna va bid‘atlarga qarshi raddiyalar bayon etilgan. Bu tuzilish kalom ilmidagi ilmiy-hikmat usulini aks ettiradi. Muallif asarni yozishda Qur‘on, hadis va salaf olimlarining (masalan, Imom Abu Hanifa, Imom Moturidiy) fikrlariga tayanadi. Abu Shakur Solimiyning “at-Tamhid fi Bayoni at-Tavhid” nomli asarida kalom ilmidagi eng muhim va asosiy masalalarni batafsil ochib bergan hamda ularni aqliy va naqliy dalillar

asosida keng muhokama qilgan. Ushbu kitob o'z davrida ham, undan keyingi asrlarda ham ahli sunna va'l-jamoa aqidasi to'liq va aniq bayon etuvchi eng qadrlangan va nufuzli manbalardan biri sifatida tan olingan.

Abu Shakur Solimiy bu murakkab mavzularni o'ta sodda, ravon va tushunarli uslubda taqdim etib, o'quvchilarga osonlik bilan yetkazgan. Jumladan, ushbu asarda "Majusiylilik" dini va ularning toifalari haqida ham ma'lumotlar berilib, alohida tahlil qilingan. Majusiylar quyosh yoki olovga sig'inuvchi odamlar bo'lib, islom dini kelmasdan avval ajam xalqlari majusiylilik e'tiqodiga mansub edilar. Majusiylilik atamasi quyosh yoki olovga sig'ingan kishilarga nisbatan hozirga qadar qo'llaniladi. Yakkaxudolik paydo bo'lgunga qadar vujudga kelgan diniy e'tiqodlar, marosim va bayramlarni ifodalash uchun asosan majusiylilik termini ishlatilgan [8: 177]. Majusiylarning olovga ibodat qilishlariga bir qancha sabablar mavjud. Masalan, "Olov Qobilning qurbonligini kuydirmadi. Chunki, u olovga ibodat qilmas edi. Olovga ibodat qilgani uchun Hobilning qurbonligini kuydirdi" [6: 338], deb o'z sabablarini bayon etadilar. Abu Shakur Solimiy Keshiy o'z kitobida majusiylarni uch toifaga ajratadi. Ular quyidagi toifalardan iborat:

Birinchi toifasi "الزمرماتية" – "az-Zamzamatia" (og'izlarni qimirlatuvchilar, g'udur-g'udur qiluvchilar) deb nomlanib, u toifa bunday deb nomlanishlariga sabab otashxonaga kirsalar, og'izlarini qimirlatadilar. Lison al-arab qomusida "zamzama" degan so'zga "shivirlamoq" ma'nosi berilib, u majusiylarning ovqat tanovul qilish oldidan muayyan diniy iboralarni shivirlab o'qimog'i sifatida izohlangan [1: 69]. Ularning asli Ibrohim (a.s.)ga olov ziyon yetkazmagan vaqtga borib taqaladi. "at-Tamhid fi Bayoni at-Tavhid"da kelishicha: "Olov Ibrohim (a.s.)ga zarar yetkazmagan. Chunki, u olovga ibodat qilgan. Bizni oxiratda kuydirmasligi uchun biz ham olov-o'tga ibodat qilamiz" [6: 338], deb ishonadilar. Mana shu vaqtda Iblis bu toifa vakillari oldiga kelib, vasvasa qilib aytadi: "Hakim, Alim zotga bir narsani yaratishi, so'ng uni halok qilish uchun uning ziddini yaratishi yaxshi emas. Lekin har bir yaxshi chiroyli va foydali narsa hamda nur, Alloh dandir. Har bir qabih, adashish, zulm, zararli narsa va olov Iblis dandir (alayhila'na). U ikkisi aka-uka bo'lib, birining ismi Yazdon, ikkinchisiniki Axraman.

Qadimda ikkovining o'rtasida adovat bo'lgan". Ular shunday deb e'tiqod qiladi va olovga ibodat qilishadi. Puflaganlarida olovga aziyat bermasligi uchun og'izlariga biror narsani bog'lab to'sib olar va olov bor joyda uhlamaydilar hamda o'chib qolmasligi uchun olov oldidan uzoqlashmas edilar [6: 338].

Ikkinchi toifasi "الشماسية" – "ash-Shumosiya" deb nomlanadi. Bu toifa quyosh va olovga ibodat qiladi va bular Alloh taoloning ulug' nuridan, deb e'tiqod qiladi [6: 338]. Shumosiya toifasi olamning yaralishi va boshqarilishida yorug'lik (nur) va zulmat o'rtasidagi kurashga ishonishgan. Biroq ularning o'ziga xosligi shundaki, ular quyosh (shams)ni alohida muqaddas deb bilishgan va unga ilohiy daraja berganlar. Ular o'z marosimlarini quyosh chiqishi va botishi bilan bog'liq ravishda ado etishgan. Ularning nazdida quyosh butun borliqdagi yorug'likning eng oliy ko'rinishi va yovuzlik (zulmat) ustidan g'alaba qozonuvchi kuch deb hisoblashgan.

Ushbu ta'riflar Sanaviyyalar (Dualistlar) toifasiga ham tegishli bo'lib nur va zulmatni azaliy ikki yartuvchi deb hisoblaydilar. Nur yaxshilik va foydali narsalarning yaratuvchisi, zulmat esa yomonlik va zararli narsalarning yaratuvchisidir. Jismalar nur va zulmatning aralashmasidan tarkib topgan. Bu ikkisinin har biri to'rtta unurni, ya'ni issiqlik sovuqlik, namlik va quruqlikni o'z ichiga oladi, hamda, birgalikda dunyoni tartibga soladi va boshqaradi [2: 115].

Bundan kelib chiqadiki, Solimiy keltirgan "shumosiya" toifasi islom manbalarida keltirilgan "Sanaviyya" guruhi ichida tilga olinadi. Ular Majusiy (Zardushtiy)likning bir qanoti bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan boshqa majusiy guruhlardan o'zlarining ba'zi ritual va falsafiy qarashlari bilan ajralib turishgan.

Uchinchi toifasi "الشمسية" – "ash-Shamsiya" deb nomlanadi. Bu toifa quyosh, oy, yulduzlar, olov va shunga o'xshash nurga ibodat qiladi va aytadi: "Bu nurlarning barchasi Alloh taolo Arsh, Lavh, osmonlardan iborat maxluqlarni yaratishdan oldin yagona nur bo'lgan. Alloh taolo mana shu narsalarni yaratganida bu nurlar tarqalib, unga qaraganda bo'linib ketgandek ko'rinadi, haqiqatda barchasi yagona nurdan iborat. U Alloh taoloning nuridir" [6: 339]. Bu so'z tanosuxiylikka (ruhlarning ko'chib yurishiga) moyil bo'ladi va

faylasuflarning sodda javhar xususidagi soʻziga oʻxshaydi. Brahmanlardan iborat butparaʼstlar, tibetlik sumaniylar va Xoqoniya shaharlaridan hululiylar (panteizm) tarafdorlari shu tariqa eʼtiqod qiladilar [6: 339]. Abu Shakur Solimiy Keshiy majusiylarni “Zardushtiylar”, “Mazdakiylar”, va “Noʻshirvoniylar” nomi bilan atalishini aytib oʻtadi.

Majusiylarning hukmi ham martaba jihatidan ahli kitoblar hukmiga oʻxshaydi. Chunki, ularga kitob berilganligi shubhasi bor. Bunga dalil Ali ibn Abu Tolib (r.a.)dan keltirilgan rivoyat, yaʼni Ali (r.a.) aytadi: “Majusiylar uchun Alloh taolo tomonidan berilgan kitob boʻlgan. Ularning odil podshosi boʻlgan. Odil hukm yuritgani uchun odamlar uni yaxshi koʻrar edilar. Mazkur podsho oʻz singlisiga oshiq boʻladi va uni vatiy qiladi. Singlisi odamlar huzurida bu sirni yoyadi. Shu tufayli odamlar unga qarshi bosh koʻtaradi. Keyin podsho oʻz qasriga kirib olib, aytadi: “Ey insonlar biz kimning farzandlari?” “Hammamiz Odam (alayhissalom) ning farzandlarimiz”, deydlar. U aytadi: “Odam (alayhissalom) ning shariati boʻlganmi?” Ular “Ha”, deydlar. U aytadi: “Uning shariati (amal qilishga boshqalardan) avlodir (yaʼni, uning shariatida singilga uylanish mumkin boʻlgan)”. Ular: “Toʻgʻri aytding”, deydlar va izlariga qaytib ketadilar. Soʻng podsho oʻz singlisini nikohlab, oʻziga juft qilib oladi. Mana shu kechasi Alloh taolo ulardan kitobni koʻtaradi” [6: 339].

“Majusiylar ahli kitob emaslar, ammo Rasululloh (s.a.v.) ularga ahli kitob kabi muomala qilishni amr qilganlar” [3: 7/112], deya bir qancha islom manbalarida uchraydi. Bundan maʼlum boʻladiki, majusiylarga avval kitob berilgan, lekin gunoh sababli koʻtarilgan.

Abdurahmon ibn Avf (r.a.) rivoyat qiladi: Umar ibn Xattob (r.a.) majusiylar haqida gapirib: “Men ular (majusiylar) bilan qanday muomala qilishni bilmayman”, dedilar. Shunda Abdurahmon ibn Avf (r.a.) aytdilar: “Men Rasululloh (s.a.v.)dan eshitganman: “Ular bilan ahli kitobga muomala qilganingiz kabi muomala qilinglar” degan edilar” [9: № 987]. Ushbu hadisga tayangan holda ayta olamizki majusiylar “ahli kitobga oʻxshash”, lekin asl ahli kitob emas, degan fikrni bildirganlar. Yaʼni, ularga jizya solinadi va musulmonlar bilan tinchlikda yashash huquqi beriladi, biroq ularning kitoblari Alloh tomonidan nozil qilingan vahiy deb tan olinmaydi.

Abu Shakur Solimiy Keshiy “at-Tamhid fi Bayoni at-Tavhid” asarida: Baʼzi ulamolar aytadi: “Ularga kitob berilganligiga shubha bor, yaʼni Zardusht nomli kishi soxta paygʻambar boʻlgan. U paygʻambarlikni daʼvo qilib, ularga “Zandubazdon” nomli kitobni Alloh taolo tomonidan tushgan, deb xabar beradi. Unda shariatlarga zid hukmlar, qissalar, amr va shu kabi narsalar mavjud. U bir tilda boʻlgan, u lugʻatda biror kishi gaplashmagan. Ular uch toifa: zardushtlar, mazdakiylar va noʻshirvoniylardan iborat. Ularning kufri aniq” [6: 339], deya taʼkidlab oʻtadi.

Solimiy keltirgan “noʻshirvoniylar” deganda, odatda Eronning soʻnggi zardushtiy imperiyasi boʻlgan Sosoniylar sulolasining eng mashhur hukmdori –Xusrav I Anushervon ibn Qubod (531–579 yillar) va uning davriga mansub siyosiy-madaniy muhit tushuniladi. “Noʻshirvon” soʻzi fors tilida “ruhiy pok”, “yuksak aql sohibi” maʼnolarini bildiradi. Xusrav I Anushervon oʻz davrida “Adolatli Noʻshirvon” (arab manbalarida كِسْرَى اَدْلَتِي – adolatli Kisro Anushervon) sifatida mashhur boʻlgan [5: 124-125]. Qubod davrida Mazdaki Bomdodon otashparaʼstlikni yoʻq qilib, yangi taʼlimotni joriy etmoqchi boʻlganda Xusrav I Anushervon bunga qarshi chiqadi. Boʻlayotgan jarayonlarda mazdakiylar tobora koʻpayib borishi bilan birgalikda Xusrav I Anushervon va uning tarafdorlari bu taʼlimotga ergashmaydilar. Vaqtlar oʻtib mazdakning yolgʻonchiligi barchaga ayon boʻlgach Xusrav I Anushervon uni oʻldiradi [10: 174-190]. Noʻshirvoniylar toifasi aynan shu davrdan shakllanishni boshlagan boʻlishi mumkin. Demak, noʻshirvoniylar toifasi ham diniy, ham siyosiy oqim sifatida Xusrav I Anushervon davrida faoliyat olib borgan hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, majusiylar qadimgi eʼtiqodlardan sanalib, uning markazida olov, quyosh va nurga sigʻinish turadi. “At-Tamhid” asarida Abu Shakur Solimiy boshqa dinlar, eʼtiqodlar singari, majusiylarni va ularning eʼtiqodiy farqlariga koʻra zamzamatiya, shumosiya va shamsiya kabi uch asosiy toifaga ajratadi, bu ularning ichidagi mazhab va qarash tafovutlarini koʻrsatadi.

Majusiylar dastlab ilohiy kitobga ega boʻlgan, ammo, keyinchalik uni yoʻqotganliklari uchun

islom huquqida ularga “Ahli kitob” emas, balki ular kabi muomalada bo‘lish kerakligi ta’kidlangan. Bu ularning jizya to‘lab, musulmon jamiyatida zimmiy sifatida yashash imkoniyatini anglatadi.

Bugungi kunda majusiylik e’tiqodi va uning izdoshlari soni dunyo miqyosida sezilarli darajada kamaygan bo‘lsa-da, ba’zi majusiy jamoalar (masalan: Eronda va Hindistonda) o‘z an’analarini saqlab qolishga intilmoqdalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Hasanov A., Komilov N., Uvatov U., Azimov A., Rahimjonov D., Zohidov Q. Islom tarixi. – Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi., 2009 – B. 304.
2. Al-Baghdodiy, Abu Mansur Abd al-Qohir ibn Tohir. Moslem Schisms and Sects (Al-Fark Bain al-Firak). Part II – Ingliz tiliga tarjima va izohlar muallifi Abraham S. Halkin. – Filadelfiya: Porcupine Press, 1978. – B. 259.
3. Al-Kasani, “Bado‘e us-sano‘i” 7/112:
4. Al-Solimiy, al-Muhtadiy Abu Shakur Muḥammad ibn Abd as-Sayyid ibn Shuayb al-Kashshi, al-Tamhid fi bayan at-Tavḥid (ed. Ömür Türkmen), Türkiye Diyanet Vakfı Yayınları & Dar Ibn Ḥazm, Ankara & Beirut 2017. – S. 344.
5. At-Tabari, Abu Ja’far Muhammad ibn Jarir. Tarix ar-Rusul val-Muluk.– Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 1987. – J. 2. – S. 608.
6. At-tamhid fi bayonit tavid – Muhammad ibn Abdulloh Keshiy; tarjimon va izohlar muallifi: Soatmurod Primov. – Toshkent: “Movarounnahr”, 2014. – B. 628.
7. Burgutxonov S. Ibn Hazm Andalusiy “Al-Fisol fil-milal val-ahva vannihal” asarining qiyosiy dinshunoslik sohasidagi ahamiyati. The Light of Islam, 2022(4), 41-48.
8. Islom ensiklopediyasi / Z. Husniddinov tahriri ostida “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – 320 b.
9. Kilavuz Ulvi Murat. Yeni Bir Neşri Vesilesiyle Ebu Şekur es-Saliminin et-Temhidine Dair Notlar. Islam Araştırmaları Dergisi. – Istanbul: ISAM, 2017. – No. 38. – S. 279.
10. Molik ibn Anas. Al-Muvatto. – Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 1990. – Hadis № 987. – B. 734.
11. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti “Siyosat ul-muluk” (Siyar ul-muluk). Ikkinchi to‘ldirilgan, qayta ishlangan nashr. Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2008. – B. 239.
12. Ömür Türkmen. Muhammed b. Abduseyyid b. Şuayb el-Kişşinin “Kitabut-Temhid fi Beyanit-Tevhid” Adli Eserinin Tahkik, Tahric ve Tahlili:

Doktora Tezi (PhD). – Şanlıurfa: Harran Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, 2002. –S. 518.

13. Ulvi Murat Kilavuz, “Abu Shakur al-Salimi and His Theological Identity within the Scope of al-Tamhid fi Bayan al-Tavḥid”, Uludağ Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi, 27 (2018/2). – S.16.